



«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Қуйи-Чирчиқ туман Ҳокимининг  
биринчи ўринбосари комиссия раиси  
К.Усканбаев

Тошкент вилояти Қуйи Чирчиқ туман Ҳокимлиги Аёллар дафтарига киритилган  
Жумагул МФЙ Эгиз Ота Кишлоғи Умарова Маликанинг хонадонини жорий  
таъмирлаш ишлари учун танловга жойлаштириш юзасидан йиғишлиш

**БАЁННОМА** № 3

«12» 09 2022 йил

Дўстобод шаҳри

Қатнашдилар:  
Комиссия раиси:  
Комиссия аъзолари:

К.Усканбаев  
Г.Абдимуратов  
Ф.Камалова  
О.Абдурахманов  
О.Тургунбаев

#### Кун тартибида:

Давлат харидлари тўғрисидаги Қонушнинг 62-моддасига асосан Қуйи Чирчиқ туман Ҳокимлиги Аёллар дафтари харид комиссиясига тақдим этилган муҳокома натижалари тўғрисида ахборот асосида лот рақами 22110012142816 га тегишли бўлган 07.09.2022 йилдаги баённома давлат харидларининг электрон тизимига муҳокома қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилганлиги тўғрисида.

#### Эшитилди комиссия раиси:

Лот рақами 22110012142816 га тегишли бўлган 07.09.2022 йилдаги баённома давлат харидларининг электрон тизимига икки иш кунига жойлаштирилди ва икки иш куни ичида танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари буйича эътирозлар келиб тушмаган.

#### КОМИССИЯ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

Лот рақами 22110012142816 га тегишли бўлган 07.09.2022 йилдаги баённомадаги харид комиссияси томонидан қолиб деб топилган иштирокчи ўртасида шартнома тузиш мақсадга мувофиқ деб топилди «G`ULOMJON KONSTRUKTION» МСНҲ билан шартнома имзолансин.

Лойиҳа смета ҳужжатлари талабга жавоб бермаган ҳолатда шартнома бекор қилинсин.

Комиссия аъзолари:

Г.Абдимуратов

Ф.Камалова

О.Абдурахманов

О.Тургунбаев

## PUDRAT SHARTNOMASI № 62

Quyi Chirchiq tumani

« 12 » sentabr 2022 yil

Ushbu pudrat shartnomasi «*Buyurtmachi*» deb ataluvchi Quyi Chirchiq tumani HOKIMLIGI va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari A.Xolmuradov bir tomondan va «*Pudratchi*» deb ataluvchi «G`ULOMJON KONSTRUKTION» MCHJ va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari I.Pardabaev ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

### I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. «*Pudratchi*» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «*Buyurtmachi*»ning talabiga asosan tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi loyixa smeta xujjatlari va ekspertiza xulosasiga asosan qayd etilgan ishlarni bajarib beradi.

### II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «*Buyurtmachi*» tomonidan tasdiqlangan smetaga va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda) ga asosan joriy narxlarda 8 950 000 (Sakkiz million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil xisoblanib, faqatgina ishlar xajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganida va fors major xolatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingandan so'ng 10 bank ish kunida «*Buyurtmachi*» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30 foizini ya'ni 2 685 000 (Ikki million olti yuz sakson besh ming) so'mni, tegishli byudjetdan moliyalashtirilgan mablag'lar doirasida, oldindan avans tariqasida «*Pudratchi*»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni 6 265 000 (Olti million ikki yuz oltmish besh ming) so'mni «*Pudratchi*» tomonidan topshirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida \_\_\_ bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.5. «*Buyurtmachi*» oxirgi to'lovni «*Pudratchi*» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida 30 bank ish kunidan kechikmagan muddatda o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «*Buyurtmachi*» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «*Pudratchi*»ning majburiyatlari

SHartnoma imzolangandan so'ng ish bajariladigan ob'ektni «*Buyurtmachi*»dan dalolatnomaga asosan kabul kilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 10 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi va ishlarni bajarish kalendar grafigiga asosan \_\_\_5\_\_\_ kun muddatda ishlarni bajarib topshiradi.

Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda «**Buyurtmachi**»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

### 3.2. «**Pudratchi**»ning xuquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

### 3.3. «**Buyurtmachi**»ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

### 3.4. «**Buyurtmachi**»ning xuquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada kursatilgan ishlarini qabul qilish kommissiyasi ishtirokida loyixa xujjalari asosida ishni sifatli bajargan xolda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish;

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «**Pudratchi**» ob'ektni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «**Buyurtmachi**»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «**Pudratchi**» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «**Buyurtmachi**» to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «**Pudratchi**» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «**Buyurtmachi**» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda **Xo'jalik sudi** orqali xal etiladi.

## VII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

7.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart. 7.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlariga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

7.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

7.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 7.4- va 7.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

8.1 SHartnoma **yuridik ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng**, tomonlar o'rtasida imzolanib, **xududiy G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha** amal qiladi.

8.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham xuquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

## VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

### «PUDRATCHI»

#### «G'ULOMJON KONSTRUKTION» МЧЖ

Manzil: Quyi chirchiq tumani  
Shodlik MFY U.Ysupov 2 uy  
Sh/v 20208000505124756001  
INN: 306 730 314 MFO: 00773  
Xalq banki Do'stobod filiali

Raxbar

I.Pardabaev



### «BUYURTMACHI»

#### QUYI CHIRCHIQ HOKIMIYAT

Manzil: Dustobod sh Navqiron kuch 1 uy  
sh/v:305122860272337109602018001  
INN:200 457 819 OKED: 84112  
Quyi CHirchiq G'aznachilik bo'linmasi  
Markaziy Bank Tosh. sh Bosh boshqarmasi  
XKKM

Gx/r: 23402000300100001010

Mfo: 00014 INN: 201122919

Raxbar





**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 142816 на приобретение Жумагул МФЙ Эгиз Ота Кишлоги Умарова Малика хонадонини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 07.09.2022

Время рассмотрения 31.08.2022 18:33

Конкурсная комиссия Куйи Чирчик тумани Хокимлиги-Аёллар, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	USKANBAYEV KAMOLITDIN ABDUMANNABOVICH	Биринчи Зам Хаким	Хакимият
<b>Секретарь комиссии</b>	QURBANOV SHOYZOD QURBANOVICH	Котиб	Хакимият
<b>Член комиссии</b>	ABDURAXMANOV OBID XAMIDULLAYEVICH	Бош мутахассис	Хакимият
<b>Член комиссии</b>	TURG'UNBOYEV ODILJON OMONTURDIYEVICH	Бош юрист консулт	Хакимият
<b>Член комиссии</b>	KAMALOVA FOTIMA MUXAMADALIYEVNA	Зам хоким Оила ва Хотин-кизлар	Хакимият
<b>Член комиссии</b>	АБДИМУРАТОВ ГУЛОМЖОН ХУДОЁРОВИЧ	Зам Хаким	Хакимият

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 07.09.2022 года № лота 142816.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 25

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга текущему ремонту жилых зданий
Подробное описание	Жумагул-1 МФЙ Эгиз Ота Кишлоги Умарова Малика
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	9 000 000.00
Стартовая сумма	9 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Айланма маблағи ва 2-сон картатека тўғрисида банк маълумотномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: . Асосий ва иккиламчи ҳисобварағидаги 2-сон картотека қарздорлигининг мажуд эмаслиги, ўз балансидаги асосий фондларга, мулкларга тақиқ қўйилмаганлиги, танлов предмети қийматининг камида 20 фоизи миқдоридаги айланма маблағларининг ёки кўрсатиб ўтилган маблағларни беришга банк қафолатномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	20	Айланма маблағи ва 2-сон картатека тўғрисида банк маълумотномаси	20	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	20	Айланма маблағи ва 2-сон картатека тўғрисида банк маълумотномаси	19	Экспертная		

Критерий №2 Ф-5 (ОФИЁРТА) ПДФ шакилда жойланиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Тех документацияда берилган нархсиз физик иш хажмларини нархлаб Ф-5 (ОФИЁРТА) шакилда топшириш

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	2	Ф-5 (ОФИЁРТА) ПДФ шакилда жойланиши шарт	2	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	2	Ф-5 (ОФИЁРТА) ПДФ шакилда жойланиши шарт	1	Экспертная		

Критерий №3 Пудрат ташкилотининг техникаси ва кичик механизмлари бўйича умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилотининг техникаси ва кичик механизмлари бўйича умумий маълумотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	20	Пудрат ташкилотининг техникаси ва кичик механизмлари бўйича умумий маълумотлар	20	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	20	Пудрат ташкилотининг техникаси ва кичик механизмлари бўйича умумий маълумотлар	15	Экспертная		

Критерий №4 Молиявий барқарорлиги бўйича умумий маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқ ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликларнинг мавжуд эмаслиги молиявий



барқарорлиги бўйича баланс ҳисоботлари охириги уч йиллик

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	14	Молиявий барқарорлиги бўйича умумий маълумот	14	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	14	Молиявий барқарорлиги бўйича умумий маълумот	10	Экспертная		

Критерий №5 3 йиллик иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов объектига ўхшаш объектларда ишлаш тажрибасининг мавжудлиги ўз кучлари билан илгари бажарилган иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	25	3 йиллик иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар	25	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	25	3 йиллик иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар	19	Экспертная		

Критерий №6 Малакавий ишчи ходимлар тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхона ишчи ходимларининг малакали мутахассисларга эга эканлиги ҳамда танлов предметиининг қиймати ва хафв-хатар тоифасига қараб соҳавий электрон рейтингда ижобий кўрсаткичга эга бўлганлиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	19	Малакавий ишчи ходимлар тўғрисида маълумот	19	Экспертная		
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	19	Малакавий ишчи ходимлар тўғрисида маълумот	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование	Стартовая	Предлагаемая	Сумма с	Применение	Общее	Дата	Оценка
--------------	-----------	--------------	---------	------------	-------	------	--------

участника	сумма	сумма	учетом конвертации (UZS)	преференции	значение (UZS)	предложения	стоимости (балл)
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	9 000 000.00	9 000 000.00 UZS	9 000 000.00	00.00	9 000 000.00	31.08.2022 06:09:22	29.83
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	9 000 000.00	8 950 000.00 UZS	8 950 000.00	00.00	8 950 000.00	31.08.2022 04:04:58	30.00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	55.3	29.83	85.13
G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ	70	30	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 142816 от 07.09.2022 года на приобретение Жумагул МФЙ Эгиз Ота Кишлоги Умарова Малика хонадонини жорий таъмирлаш определила победителем:

G'ULOMJON CONSTRUCTION MCHJ  
306730314

и резервный исполнитель: "ASLIDDIN FAYZ BIZNES" mas'uliyati cheklangan jamiyati (302781863)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	USKANBAYEV KAMOLITDIN ABDUMANNABOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ABDURAXMANOV OBID XAMIDULLAYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	TURG'UNBOYEV ODILJON OMONTURDIYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	KAMALOVA FOTIMA MUXAMADALIYEVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	АБДИМУРАТОВ ГУЛОМЖОН ХУДОЁРОВИЧ	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП